

ANOR BOG‘LARIDA TARQALGAN KASALLIKLAR BO‘YICHA MONITORING ISHLARI NATIJALARI (SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA)

Safarov Murtoza Absalomovich,

O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti
Surxondaryo mintaqaviy filiali katta ilmiy xodimi, q.x.f.f.d.
ORCID: 0009-0006-9634-0959

Annotatsiya. Maqolada Surxondaryo viloyatining anor bog‘larida tarqalgan kasallik turlari, uchrash darajasi va zararlantirishini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan kuzatuvlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: anor, bakteriya, vilt, antraknoz, fomez, kasallik, subtropik.

Аннотация. В статье рассматриваются наблюдения, проведенные по изучению видов болезней, их распространенности и вредности в гранатовых садах Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: гранат, бактерия, вилт, антракноз, фомоз, болезнь, субтропик.

Abstract. The article discusses observations conducted to study the types of diseases, their prevalence and harmfulness in pomegranate orchards of the Surkhondaryo region.

Keywords: pomegranate, bakteriya, vilt, antraknoz, fomez, disease, subtropical.

Kirish. Mamlakatimizning anor bog‘larida bir nechta turdagi kasalliklar bilan zararlaydi. Ayrim mualliflarning fikricha antraknoz, meva chirishi, fomez va al‘ternarioz ilmiy asoslanmagan muddatlarda kimyoviy ishlov berilgan anor bog‘larda yuqoridagi kasalliklar uchrashi qayd etilgan.

Anor (*Punica granatum* L.) - *Punicaceae* oilasiga mansub bo‘lib uzunligi 5-8 metrgacha o‘sadigan bargli buta yoki mayda mevalar beradigan daraxt turidir.

Anor mevasi namligi yuqori va ozuqaviy moddalarga boyligi sababli turli xil zamburug‘li va bakterial kasalliklar bilan kasallanadi. Ushbu mevali daraxtni yetishtirishda turli xildagi barg dog‘lanishlari, mevalarni chirishi va dog‘lanishi, tuproq bilan yuqadigan (vilt) kasalliklar ta‘sir qiladi, natijada anorzorlarda katta yo‘qotishlarga olib keladi.

Tadqiqotlarimizda Surxondaryo viloyati sharoitida parvarishlanayotgan anor bog‘lardagi 2022–2024 yillar davomida kasalliklarning 6 turi uchrashi aniqlandi.

Respublikamiz sharoitida anor o‘simliklarini *antraknoz*, *meva chirishi*, *fomez* va *al‘ternarioz* kasalliklari kasallantirsa, zararkunanda hasharotlardan *anor mevaxo‘ri*, *komstok qurti*, *anor shirasi*, *anor kanasi* va *oddiy o‘rgimchakkana* jiddiy zarar yetkazadi. Bu zararli organizmlar anor o‘simligi va hosildorligiga katta iqtisodiy zarar yetkazadi.

Anor o‘simligidan mo‘l - ko‘l hosil olishning asosiy omillaridan biri bu anorda uchraydigan zararli organizmlarni bioekologik xususiyatlarini o‘rgangan holda ularga qarshi ilmiy asoslangan kurash choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Surxondaryo viloyatida yetishtirilayotgan ho‘l mevalar orasida subtropik mevalar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Subtropik ho‘l mevalarni etishtirishning miqdorini oshirish faqat qadimdan ustirib kelinadigan mevalar xisobigagina emas, balki mahalliy sharoitga moslashtirilgan xosildorligi yuqori bo‘lgan yangi mevali daraxtlarning xillarini ko‘paytirish evaziga ham amalga oshirilmoqda.

Subtropik mevalar, daraxtlar orasida anor o‘ziga xos o‘rnni egallaydi. Subtropik mevali daraxtlardan organik, yuqori va sifatli hosil olishni ta‘minlashning asosiy shartlardan biri –

daraxtlarni zararli organizmlardan himoya qilishdir. Anorga zararli organizmlardan kasalliklar kuchli zarar etkazadi. Kasalliklarga qarshi kurash uchun kasallik qo‘zg‘atuvchisini to‘g‘ri aniqlash, uning rivojlanishi, tarqalishi, bir mevadani ikkinchisiga qanday saqlanishi haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lish va shular asosida anorzorlarni himoya qilishning samarali usullarini ishlab chiqish mumkin.

Surxondaryo viloyatida anor ekilgan maydonlarida uchraydigan qo‘ng‘ir dog‘lanish kasalliklari, antraknoz kasalligi, rak yoki fomez kasalligi, ko‘k chirishi, yashil chirishi, qora chirishi kabi kasalliklarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Anorning nihollik davridan vegetatsiya oxirigacha kasalliklarning tarqalishi va rivojlanishi bo‘yicha Surxondaryo viloyatining barcha tumanlardagi anor ekilgan maydonlar va aholi tomorqalarida kuzatuv monitoring ishlari olib borildi.

Anorning ko‘k chirish kasalligi - *Penicillium expansum* Link. Kasallikni *Penicillium expansum* Link zamburug‘i qo‘zg‘atadi. Anorning bu kasalligi mevani omborxonalarda saqlash davrida uchraydi. Zamburug‘ anor mevasining urilgan yoki mexanik shikastlangan qismidan yuqadi.

Materiallar va uslublar. Tadqiqotlarimiz Surxondaryo viloyatining bog‘dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida olib borildi. Kasalliklarni hisobga olish ishlari umum qabul qilingan uslublar asosida bajarildi. Olingan ma‘lumotlarning matematik ishlovi dispersiya tahlil uslubi hamda alohida holatlarda «o‘rtacha xatolikni» hisobga oluvchi kasriy usul asosida amalga oshirildi hamda matematik va statistik ishlov uslublari yordamida bajarildi. Variantlar o‘rtasidagi eng kichik farq B.A.Dospexov tomonidan tuzilgan uslub asosida hisoblandi va kompyuterda qayta tasdiqlandi.

Natijalar va munozara. Kuzatuvlar natijasida aholi tomorqalari va ekilgan anor bog‘larida monitoring ishlari olib borilganda 2023 yil anomal sovuq kuzatilganligi sababli anor daraxtlarini sovuq havo ta‘sirida ayrim qismlarini nobud bo‘lganligini kuzatdik. Ayrim qurib qolgan joylaridan yangi novdalarni unib chiqqanligi va ushbu yangi novdalarda kasalliklar uchraganligi aniqlandi. Viloyatning Angor tumanida qora chirish kasalligi, Denov tumanida antraknoz

Surxondaryo viloyati tumanlarining anor ekilgan maydonlarda uchraydigan kasalliklarning tarqalishi bo'yicha monitoring tahlili

№	Tuman nomi	Anor kasalliklarining nomlanishi va tarqalishi					
		Qo'ng'ir dog'lanish kasalligi	Antraknoz kasalligi	Rak yoki fomez kasalligi	Ko'k chirish kasalligi	Yashil chirishi kasalligi	Qora chirishi kasalligi
1.	Angor	-	-	-	-	-	+
2.	Denov	-	+	-	-	-	-
3.	Bandixon	+	-	-	+	-	-
4.	Jarqo'rg'on	-	-	-	-	-	-
5.	Qiziriq	-	-	-	-	-	-
6.	Qumqo'rg'on	-	-	-	-	-	-
7.	Muzrabod	+	-	-	+	-	-
8.	Oltinsoy	+	-	-	-	+	-
9.	Sariosiyo	+	-	-	-	-	-
10.	Termiz	-	-	-	-	-	-
11.	Uzun	+	-	-	-	-	-
12.	Sherobod	+	-	-	+	-	-
13.	Sho'rchi	-	-	-	-	-	-

Izoh: - Tarqalmagan, + Kam tarqalgan, ++ Ko'p tarqalgan

kasalligi, Bandixon, Sariosiyo, Uzun tumanida qo'ng'ir dog'lanish, Muzrabod tumanida qo'ng'ir dog'lanish, ko'k chirish kasalligi, Oltinsoy tumanida qo'ng'ir dog'lanish, yashil chirish kasalligi, Sherobod tumanida qo'ng'ir dog'lanish, ko'k chirish kasalliklari monitoring natijalarida kuzatildi. Jarqo'rg'on, Qiziriq, Qumqurg'on, Termiz, Sho'rchi tumanlarida kasallik kuzatilmadi.

Anor mevasining zararlangan joyi yumshoq bo'lib, qo'ng'ir dog' hosil bo'ladi. Kasallikning boshlang'ich davrida dog' unchalik kattalashmaydi. Keyinchalik dog' sirti ko'kish g'ubor bilan qoplanadi. Kasallikning rivojlanish davomida zamburug'ning ko'k rangdagi konidiyalari to'plami faqat anor mevasining sirtini emas, balki uning ichki qismini ham butunlay qoplab oladi. Anorning butun ichki qismi shu zamburug' ta'sirida yemiriladi.

Kasallik anor mevasining urilgan po'stloq qismi va meva bandi orqali o'tadi. Ayniqsa bir-biriga tegib turgan anor mevalari

orqali kasallik tez tarqaladi. Bundan tashqari bu chirish kasalligini tarqalishida omborxonadagi zararkunandalar va ishlatiladigan mehnat qurollarining ham roli kam emas.

Bu kasallik anor mevasi omborga kiritilishidan oldin boshlanib, uni saqlash davrida sharoitni, ya'ni haroratni buzilishi, namlikni me'yordan oshishi chirishni jadal kechishiga sababchi bo'ladi. Ko'p hollarda mevalar butunlay chirib ketadi.

Xulosa. Surxondaryo viloyatida olib borilgan monitoring ishlarida Angor tumanida qora chirish kasalligi, Denov tumanida antraknoz kasalligi, Bandixon, Sariosiyo, Uzun tumanida qo'ng'ir dog'lanish, Muzrabod tumanida qo'ng'ir dog'lanish, ko'k chirish kasalligi, Oltinsoy tumanida qo'ng'ir dog'lanish, yashil chirish kasalligi, Sherobod tumanida qo'ng'ir dog'lanish, ko'k chirish kasalliklari kuzatildi. Jarqo'rg'on, Qiziriq, Qumqurg'on, Termiz, Sho'rchi tumanlarida kasallik kuzatilmadi.

ADABIYOTLAR:

1. Розаков Б.С. Изучению прежде временного усыхания граната. – Бюл. Института чая и субтропические культуры, №3, 1961.- С.18-20.
2. Петров В.В. В мире субтропических растений, М.Наука, 1971.-111с.
3. Левин Н.Г. Культура граната зарубежом субтропические культуры.
4. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – Москва, 1985. - 351с.